



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-iyul

153-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyundagi 367-sodan qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 1-iyuldagagi 331-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyundagi "Davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 367-sodan qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 1-iyuldagagi 331-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyun kunidagi "Davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 367-sodan qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 1-iyuldagagi 331-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgust kunidagi "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-sodan qarorida belgilangan vazifalar ijrosini barvaqt va sifatli ta'minlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosidagi loyihalar belgilangan muddatlarda natijador amalga oshirilishida barcha darajadagi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari mas'uliyatini oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgust kunidagi "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-sodan qarori (keyingi o'rinnarda - qaror) bilan:

2024-2026-yillarda ustuvor davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar va 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi tasdiqlanganligi;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining birinchi rahbarlari qarorda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va vazifalarni to'liq, sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish hamda salohiyatlari investorlarni jalb qilish uchun shaxsan javobgar etib belgilanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi hamda viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimlarining birinchi o'rribbosarlariga, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining o'rribbosarlaridan biriga davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha qo'shimcha vazifalar yuklash to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

Bunda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari o'rribbosarlari qarorda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga to'laqonli erishish hamda vazifalar ijrosini o'z vaqtida, sifatli va natijador ta'minlash hamda sohaga salohiyatlari investorlarni jalb qilish uchun tegishli davlat organining birinchi rahbarlari bilan birgalikda shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo'yilganligi;

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosidagi loyihalar amalga oshirilishini boshlashni nazarda tutuvchi dastlabki kelishuvlar imzolanishidan oldin o'n kun muddatda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilishi lozim ekanligi belgilab qo'yilganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ikki oy muddatda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mas'ul o'rribbosarlari va tegishli mutaxassislari uchun davlat-xususiy sheriklik yo'nalishi bo'yicha qisqa muddatli seminar-treninglar tashkil etish;

har yili 31-dekabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi qonunlarda belgilanadigan limitlar doirasida va loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda shartli va to'g'ridan-to'g'ri yuklamasidan kelib chiqib, kelgusi yillarda amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari ro'yxatini Vazirlar Mahkamasiga kiritib borish topshirig'i yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.Farg'ona tumani hokimining birinchi o'rribbosari O.Abduraximovga tumanda amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini tashkil etish va muvofiqlashtirishga mas'ul etib belgilansin.

Bunda, Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshqarmasi davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini tashkil etishda ishchi organ etib belgilansin.

Farg'ona tumani hokimining o'rribbosarlari O.Abduraximov, M.Qodirxonov, K.Jo'rayev, I.Toshpo'latov, tegishli tashkilot va muassasalarning rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdaggi "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-son qarorida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga to‘laqonli erishish hamda vazifalar ijrosini o‘z vaqtida, sifatli va natijador ta’minlash hamda sohaga salohiyatlari investorlarni jalb qilish uchun shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

4.Iqtisodiyot va moliya bo‘limi tumanda amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini doimiy monitoring qilib borsin hamda har oyda bir marotaba amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida Farg‘ona tumani hokimiga axborot kiritib borsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T